



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, MAXSUS SON-2. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK: 876(uzb)-29

QISILGAN CHURRALARDA A'ZOLAR HAYOTIYLIGINI BAHOLASHNING ISTIQBOLLARI

Suyunov Dilmurod Mo'minovich., <https://orcid.org/0000-0002-8363-6033>

Pakirdinov Alisher Sayfitdinovich <https://orcid.org/0000-0002-5928-0647>

Andijon davlat tibbiyot instituti O'zbekiston, Andijon, Otabekov 1

Tel: (0-374) 223-94-60. E.mail: info@adti

Email: suyunovd@gmail.com

Email: pakirdinovasmi@gmail.com



Rezyume

Qorin devori churrallari keng tarqalgan xirurgik patologiya bo'lib, ularning 5–15 % hollarda qisilish bilan asoratlanishi kuzatiladi. Qisilgan churralarda operatsiya vaqtida a'zolar hayotiyligini to'g'ri baholash jarrohlik taktikasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ichak va boshqa a'zolar hayotiyligini baholashning an'anaviy va zamonaviy usullari tahlil qilinib, ularning afzallik va kamchiliklari yoritilgan. Shuningdek, kelajakda qo'llanilishi mumkin bo'lgan istiqbolli texnologiyalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: qisilgan churra, ichak ishemiyasi, hayotiylik, doppler, fluorescent angiografiya, puls oksimetriya.

ПЕРСПЕКТИВЫ ОЦЕНКИ ЖИЗНЕСПОСОБНОСТИ ОРГАНОВ ПРИ УЩЕМЛЁННЫХ ГРЫЖАХ

Суюнов Дилмурод Муминович., <https://orcid.org/0000-0002-8363-6033>

Пакирдинов Алишер Сайфитдинович <https://orcid.org/0000-0002-5928-0647>

Андижанский государственный медицинский институт Узбекистан,

Андижан, ул. Отабекова,

1 Тел: (0-374) 223-94-60. E-mail: info@adti

Резюме

Грыжи брюшной стенки являются распространенной хирургической патологией, которая в 5–15% случаев осложняется ущемлением. При ущемлённых грыжах правильная интраоперационная оценка жизнеспособности органов имеет решающее значение для



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, MAXSUS SON-2. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

определения хирургической тактики. В данной статье анализируются традиционные и современные методы оценки жизнеспособности кишечника и других органов, освещаются их преимущества и недостатки. Также рассмотрены перспективные технологии, которые могут найти применение в будущем.

Ключевые слова: ущемлённая грыжа, ишемия кишечника, жизнеспособность, доплерография, флуоресцентная ангиография, пульсоксиметрия.

PROSPECTS FOR ASSESSING ORGAN VIABILITY IN STRANGULATED HERNIAS

Suyunov Dilmurod Muminovich, <https://orcid.org/0000-0002-8363-6033>

Pakirdinov Alisher Sayfitdinovich <https://orcid.org/0000-0002-5928-0647>

Andijan State Medical Institute, 1 Otabekov St., Andijan, Uzbekistan.

Tel: (0-374) 223-94-60. E-mail: info@adti

Resume

Abdominal wall hernias are a common surgical pathology, which in 5–15% of cases are complicated by strangulation. With strangulated hernias, a correct intraoperative assessment of organ viability is crucial for determining the surgical approach. This article analyzes traditional and modern methods for assessing the viability of the intestine and other organs, highlighting their advantages and disadvantages. Promising technologies that may be applied in the future are also reviewed.

Keywords: strangulated hernia, intestinal ischemia, viability, Doppler ultrasonography, fluorescence angiography, pulse oximetry.

Kirish. Qorin oldingi devori dunyo aholisining taxminan 1,7 % da uchraydi. Ayrim tadqiqotlarda yosh va demografik omillarga qarab bu ko'rsatkich 2–4 % gacha ekanligi ham qayd etilgan. Ba'zi populyatsion tekshiruvlarda esa churralar 10–20 % gacha aniqlangan, bu esa yashirin (asimptomatik) holatlar ko'pligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ko'pchilik xirurgik darsliklarda umumiy xulosa sifatida qorin churralari aholining taxminan 2–5 % da uchraydi deb keltirilgan. Jarrohlik kasalliklari tarkibidagi ulushiga keladigan bo'lsak, qorin devori churralari barcha jarrohlik amaliyotlarining 15–18 % ni tashkil etadi. Dunyo bo'yicha har yili 20 milliondan ortiq gernioplastika operatsiyasi bajariladi(1,2). Qorin devori churralarini bir nechta asoratlari bo'lib, shulardan eng ko'p uchraydigan bu qisilish asoratidir. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra churralar 5–15 % hollarda qisilish (incarceration) bilan asoratlanadi. Bu holatlar shoshilinch jarrohlik holatlarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi(3). Qisilgan churralarda operatsiya vaqtida qisilgan a'zoning hayotiylikini (viability) to'g'ri baholash juda muhim, chunki bu rezeksiya qilish yoki saqlab qolish taktikasini belgilaydi.

Maqsad. Qisilgan churralarda a'zolar hayotiylikini baholash usullarini tahlil qilish va ularning klinik amaliyotdagi ahamiyati hamda istiqbollari aniqlash.

Natijalar va muhokama. Amaliyotda qisilgan a'zoni xayotiylikini baholashni bir necha usullar qo'llaniladi.

1. Klinik (makroskopik) baholash usuli. Bu eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Asosiy belgilari jarroh quyidagi mezonlarga e'tibor beradi: rangi qizg'ish-pushti → hayotiy, ko'kimtir-qizil → ishemiya, qora yoki kulrang → nekroz, peristaltika mavjud → ichak hayotiy, peristaltika yo'q → ishemiya yoki nekroz ehtimoli, mezenterial tomirlarda pulsasiya saqlangan → qon aylanishi bor, pulsasiya yo'q → ishemiya, seroz qavatining yaltiroqligi yaltiroq → normal, xira → ishemiya, kesilganda qon chiqishi → hayotiy, qon chiqmasligi → nekroz.

2. Reanimatsion-diagnostik usul. Agar ichak holati shubhali bo'lsa, uni issiq fiziologik eritma bilan namlash va kislorod bilan ta'minlash orqali qayta baholash mumkin. Amaliyot ichak halqasi 37°S izotonik eritma bilan 10–15 daqiqa namlanadi, mezenteriyga 0,25 % novokain yoki vazodilatatorlar yuborilishi mumkin. Agar rang tiklansa va peristaltika paydo bo'lsa → ichak hayotiy.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, MAXSUS SON-2. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

3. Fluorescent angiografiya. Zamonaviy usullardan biri. Usul mohiyati Indocyanine green (ICG) preparati yuboriladi. Maxsus kamera orqali ichak perfuziyasi baholanadi. Afzalliklari: ishemiyani aniq ko'rsatadi, rezeksiya hajmini aniq belgilashga yordam beradi.

4. Doppler ultratovush tekshiruvi. Mezenterial tomirlarda qon oqimi bor-yo'qligini tekshiradi. Belgilar qon oqimi bor → hayotiy, signal yo'q → ishemiya. Qisilgan churralarda ichak yoki boshqa a'zoning hayotiylikini baholash uchun Doppler ultratovush usuli qo'llash g'oyasi XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Bu usul mezenterial tomirlarda qon oqimini aniqlash orqali ishemiya yoki nekrozni baholashga yordam beradi. Bu usulning asoschisi Christian Doppler tomonidan 1842 yilda kashf etilgan Doppler effect ga asoslanadi. Jarrohlikda, jumladan ichak ishemiyasini baholashda, 1970 yillardan boshlab qo'llanish boshlangan. Bir qator mualliflar operatsiya vaqtida Doppler usulini qo'llashni tavsiya qilgan. Robert J. Fitzgibbons ingvinal churralar bo'yicha tadqiqotlarda mezenterial qon oqimini baholash uchun intraoperatsion Doppler qo'llash mumkinligini ta'kidlagan. Lloyd M. Nyhus gernalogiya bo'yicha olib borilgan ishlarida shubhali holatlarda Doppler tekshiruvi yordamchi usul sifatida tavsiya etilgan. Harold Ellis ichak hayotiylikini baholashda Dopplerni qo'llash mumkinligini, lekin klinik mezonlar asosiy ekanini ta'kidlagan. Usulning mohiyati: mezenterial arteriyalarda qon oqimini aniqlaydi, qon oqimi mavjud → ichak hayotiy, signal yo'q → ishemiya yoki nekroz ehtimoli. Hozirgi kunda amaliy jarrohlikda qo'llanilishi. Ushbu patologiyada hozirda klinik amaliyotda Doppler usuli keng standart usul hisoblanmaydi. Sabablari: makroskopik baholash tez va ishonchli, operatsiya vaqtida hamma joyda Doppler apparati mavjud emasligi, ba'zi holatlarda falsa signallar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ko'pchilik qo'llanmalarda: asosiy usul — klinik (makroskopik) baholash, Doppler — yordamchi usul sifatida keltirilgan.

5. Puls oksimetriyani qo'llash g'oyasi. Puls oksimetriya odatda arterial qonda kislorod saturatsiyasini (SpO_2) aniqlash uchun ishlatiladi. Jarrohlikda esa uning sensori ichak devori yoki mezenteriyaga qo'yilib, to'qimaning kislorod bilan ta'minlanishini baholashga qaratilgan. Puls oksimetriya usulini qo'llashdan maqsad: ishemiyani erta aniqlash va ichak rezeksiyasi hajmini to'g'ri belgilashdan iborat.

Ilmiy tadqiqotlar. Bir necha mualliflar bu usulni eksperimental va klinik tadqiqotlarda qo'llagan. M. H. DeNobile va hammualliflar (1990 yillar) intraoperatsion puls oksimetriya yordamida, ichak devorida kislorod saturatsiyasini o'lchash mumkinligini ko'rsatgan. M. Erikoglu va hammualliflar (2005) qisilgan churralarda ichak hayotiylikini baholash uchun puls oksimetriyani klinik tadqiqotda qo'llagan. H.Karaman to'qima saturatsiyasi 30–40 % dan past bo'lsa, ishemiya ehtimoli yuqori ekanini ko'rsatgan. Puls oksimetriya usulining afzalliklari: invaziv emas, tez, arzon, operatsiya vaqtida oson qo'llanadi. Istiqbollar. Qisilgan churralarda a'zolar hayotiylikini baholashda quyidagi yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi:

1. Ob'ektiv instrumental usullarni joriy qilish - (ICG, lazer doppler, to'qima oksimetriyasi).
2. Kombinasional yondashuv - klinik + instrumental usullarni birgalikda qo'llash.
3. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar - to'qima perfuziyasini avtomatik tahlil qilish.
4. Intraoperatsion monitoring tizimlari- real vaqtda qon aylanishini kuzatish.

Xulosa:

1. Qisilgan churralarda a'zolar hayotiylikini baholash xirurgik taktikani belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.
2. Klinik (makroskopik) usul hozircha asosiy standart hisoblanadi.
3. Instrumental usullar diagnostik aniqlikni oshiradi va ayniqsa shubhali holatlarda muhim ahamiyatga ega.
4. Kelajakda yuqori texnologiyali usullarni keng joriy etish orqali baholashning ob'ektivligi va samaradorligi oshishi kutilmoqda.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, MAXSUS SON-2. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Adabiyotlar

1. Prevalence and associated factors of external hernia among adult patients visiting the surgical outpatient department at the University of Gondar Comprehensive Specialised Hospital, Northwest Ethiopia: a cross-sectional study Anteneh Ayelign Kibret et al.2022.
2. Hernias in a Tertiary Care Center: a Cross-Sectional Study Mahmoud M. Abokhsab1 et al.2024.
3. Risk factors of postoperative complications after emergency repair of incarcerated groin hernia for adult patients: a retrospective cohort study W. Dai et al.2024.
4. Kibret A.A. et al. Prevalence and associated factors of external hernia... 2022.
5. Abokhsab M.M. et al. Hernias in a Tertiary Care Center... 2024.
6. Dai W. et al. Risk factors of postoperative complications... 2024.
7. Erikoglu M. et al. Intraoperative pulse oximetry... 2005.
8. Karaman H. Tissue oxygenation in intestinal ischemia...
9. Nyhus L.M. Hernia.
10. Fitzgibbons R.J. Inguinal hernias.
11. Ellis H. Clinical anatomy and surgery.